




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

O'ZBEK-TURK QARG'ISHLARNING MIFOPOETIK TALQINI

A MYTHOPOETIC ANALYSIS OF UZBEK AND TURKISH CURSES

Fotima KOMILOVA,

ToshDO'TAU magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/UBPT1220

Annotation. *Curses are one of the genres that share a common root in the oral creativity of Turkic peoples, but have developed uniquely according to the historical, cultural, and linguistic characteristics of each people. In Uzbek and Turkic folklore traditions, curses manifest not only as expressions of negative wishes, but also as an important aspect of ancient mythological ideas, religious beliefs, and social relations. This article comparatively analyzes the content of curses, the system of images, the psychological interpretation of blessings and curses, as well as their mythopoetic foundations based on Uzbek and Turkic materials.*

Key words: *curse, myth, belief, historical root, folklore, genre feature, ceremony, praise, religion, magical effect.*

Kirish. Dunyo xalqlari tafakkur tarixiga nazar tashlansa, dastlab mifologik tafakkur, keyingi bosqich mifo-poetik tafakkur, so'ngra poetik tafakkur mahsullari o'rin olishini kuzatamiz. Yunon, misr, hind va boshqa ko'chilik xalqlarning mifologik dunyoqarashi aks etgan manbalar mifologik hamda mifo-poetik tafakkur bosqichida turli ko'rinishlarda yozma manbalarda saqlanib qolgan. Ammo aksariyat turkiy va o'zbek mifologiyasi bilan bog'liq obrazlar, motiv va syujetlar folklor manbalari mag'zida badiiy estetik bosqichda yetib kelgan. Bu syujet, motiv va obrazlardagi mifologik tasavvurlarni ko'rsatish uchun badiiy estetik qatlam mag'zidagi mifo-poetik, so'ngra mifologik qatlamni tiklashni talab qiladi [Турдимов Ш., 2023:7-8].

Turkiy folklorshunoslikda miflarning xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida tasniflanishi masalasida turlicha fikrlar bildirilgan. Xususan, K.Imomov mif va og'zaki hikoya janrlarini epik turning naqliy asarlari sirasiga kiritgan bo'lsa [Имомов К., 1981: 7], T.Mirzayev va O.Safarovlar mifni —folklorning eng qadimiy janrlaridan biri, deb hisoblaydilar[Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди, 1990: 90]. Mifologiyaning xalq nasri tizimida tutgan o'rini o'rgangan M.Jo'rayev esa mif, afsona, rivoyat va og'zaki hikoya janrlarini o'zbek folklorining ma'rifiy nasrga mansub janrlari tarzida tasniflagan [Каскабасов С., 1990:74-11].

Mif – olam haqidagi qadimgi odamning ilk tasavvurlari bo'lsa-da, u nima bilandir ifodalangan, so'z vositasida bayon qilingan bo'lishi kerak. Ana shu tarzda so'z bilan bayon qilingan ifodalangan tasavvurlar, qadimgi odamning olam,haqidagi inonch-e'tiqodlarini o'zida aks ettirgan, jamlagan, boshqalarga namoyish etilgan yoki hikoya qilib berilgan axborot mifdir. Mifologik tasavvurlar xalq udumlarida e'tiqodiy inonch tarzida, qadimgi san'at asarlaridagi ramziy chizgilarda ifodalangan tasviriy ko'rinishdan tashkari og'zaki hikoya, afsona yoki rivoyatga o'xshab jonli ijro orqali aytib ham berilgan. Zero, professor B.Sarimsoqov to'g'ri qayd qilganidek, variatlilik, og'zakilik, anonimlik kabi folklor asarlariga xos xususiyatlar mifda ham mavjud bo'ladi[Саримсоқов Б., 1981: 103]. Demak, mif o'zbek xalq nasrining qadimiy janrlaridan biridir.

Mifologik qarash va tasavvurlar asosidagi obrazlar ishtirok etgan olqish va qarg'ishlar uzoq ajdodlar tomonidan allaqachonlar yaratilgan bo'lsa ham, biroq hozirga qadar ularning mazmun va vazifalarida jiddiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi. Masalan, xalq orasida to'yda, motamda, yoki biror bir yangi vazifalarni bajarishdan oldin "ota-bobolar ruhi qo'llasin" degan olqishning aytilish, "arvoh ursin" degan qarg'ishlarning mavjudligi buni asoslaydi. Ruhlar haqidagi mifologik qarashlar, ularning yaxshilik qilish haqidagi tasavvurlar xalq o'rtasida olqish bilan bir qatorda uning butunlay aksi bo'lmish qarg'ishlarni ham keltirib chiqaradi. Mifologik obrazlardan xizir, chiltonlar, choryorlar, farishtalar, pari, jin, balo, alvasti, ajal kabilarning xalq qarg'ishlari tarkibida eng ko'p uchraydi. Ammo ularning mazmun-mohiyatiga qarab vazifalari nisbatan aniqlanadi. Xizir, chilton, choriyor, farishta kabi obrazlar asosan olqishlar janrida qo'llansa, jin, alvasti, balo, ajal kabi mifologik obrazlar vazifa tizimiga qarab qarg'ishlar tarkibida keng qo'llaniladi. Shu kabi holatlarning turkiy xalqlar olqish va qarg'ishlarida qanday ifodalanishi, ularning vazifa shakllari qay tarzda aks etishi tadqiq etilsa, kichik janrlarning umumturkiy o'ziga xos xususiyatlari oydinlashadi [Aliqulova H., 2024].

S. Ro'zimboyev va H. Ro'zmetovlar lug'atida qarg'ishlarning quyidagi tasnifi keltirilgan:

- 1) Mifologik qarg'ishlar;
- 2) Tabiat dunyosiga aloqador qarg'ishlar;
- 3) Jonsiz predmetlarga oid qarg'ishlar [Рузимбоев С., Рузметов Х., 2007: 32-33].

Ushbu tasnif ham ma'lum bir mezonga asoslanmaganligi, ya'ni uning birinchi bandi tarixiylik prinsipini o'zida aks etirgani holda keyingi bandlar qarg'ish matnida qo'llanilgan obraz, tushuncha, detallarga ko'ra ajratilgan.

Inson yaralibdiki, turli narsa va obrazlarga etiqod kilib keladi. Bu ko'nikma insonning borliqni anglash darajasi bilan bog'lik bo'lib, o'zi qo'rqan narsa va ilohiy siymolarda sehr-jodu qudrati mavjud deb bilishidadir. Mazkur tushuncha qadimgi zamon va o'rta asrlar kishisininggina emas, balki ayrim zamondoshlarimiz ongini ham tark etmagan. Chunki asrlar mobaynida milliy qadriyatlar tizimiga singib ketgan magik tasavvurlar badiiy so'z vositasida yashovchanligiga ko'ra antanaviylik kasb etgan. Jumladan, omadi qaytib, ko'ngilsizliklarga duch kelaveradigan yoki takror-takror tan jarohati olayotgan kishilarga nisbatan hozir ham "unga qarg'ish tekkan" deya munosabat bildiriladi. Shunday shaxslar o'z boshiga tushgan ko'rguliklar sababini tahlil qilib, gumon qilingan qarg'ovchining oldiga kelib kechirim so'raydilar. Go'yoki, u qarg'ishini qaytib olsa, shu bilan baxtsizliklarga chek qo'yilgandek, o'zini ruhan yengil his qiladi.

Bugungi kunga qadar saqlanib qolgan ko'pgina mif va mifologik afonalarining syujet qurilishida qarg'ish janriga oid materiallarning qo'llanilishi qarg'ish janrining genetik ildizlari qadimgi mifologiya bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Zero, N. Shatinova ham "qarg'ish – ko'pgina mifologik syujetlarning faol elementlaridan biri bo'lib, ko'pincha u syujetni shakllantiruvchi vosita rolini ham o'taydi", - deb yozgan edi [Шатинова Н., 1979: 95].

Nafaqat o'zbek tili, balki har ikki xalq qarg'ishlarining umumiy jihati mifologik tafakkur bilan bog'liq. Yana bir misol: o'zbek qarg'ishlarida ham, turk qarg'ishlarida ham tabiat kuchlari muhim o'rin tutadi. Masalan, o'zbek tilida "yer yutsin", "osmon ursin", "o'ting o'chsin" kabi qarg'ishlar keng tarqalgan bo'lsa, turk tilida ularga mos ravishda "yer dibine batsin", "gök çarpsın", "ocağın sönsün" kabi ifodalar qo'llanadi. Bu o'xshashliklar turkiy xalqlarning umumiy mifologik ildizga ega ekanini ko'rsatadi. Har ikki an'anada ham



yer – yutuvchi kuch, osmon – jazolovchi oliy kuch, olov esa hayot va barakaning ramzi sifatida talqin qilinadi.

Shu bilan birga, qarg'ishlarning antropomorfik obrazlari ham o'zbek va turk folklorida o'xshash tarzda shakllangan. O'zbek qarg'ishlarida "ko'zing ko'r bo'lsin", "qo'ling sinsin", "tiling qurisin" kabi ifodalar uchrasa, turk tilida "gözün kör olsun", "elin kırılın", "dilin kurusun" shakllari mavjud. Bu yerda inson tanasining muhim a'zolari orqali umumiy falokat ifodalanadi. Mifopoetik nuqtayi nazardan bu hodisa qism orqali butunni ifodalash tamoyiliga asoslanadi va u qadimgi sehrli tafakkurning muhim belgilaridan biridir.

Kasallik va o'lim motivlari ham ikki an'anada muhim o'rin egallaydi. O'zbek qarg'ishlarida "darding bedavo bo'lsin", "baloga yo'liq", "o'lim seni topsin" kabi ifodalar uchrasa, turk folklorida "derdin derman bulmasın", "belanı bulasın", "ölüm seni alsın" kabi variantlar qo'llanadi. Bu o'xshashliklar kasallik va o'limning qadimgi inson tasavvurida tashqi, g'ayritabiiy kuchlar bilan bog'liq deb qaralganini ko'rsatadi. Har ikki xalqda ham qarg'ish orqali inson yovuz kuchlar ixtiyoriga topshiriladi.

Biroq o'zbek va turk qarg'ishlari o'rtasida muayyan farqlar ham mavjud. O'zbek qarg'ishlarida ko'proq hissiylik, kuchli emotsional ifoda va ba'zan keskinlik ustunlik qiladi. Masalan, "yer bilan yakson bo'l", "nom-nishonsiz yo'qol" kabi ifodalar juda keskin semantik yukga ega. Turk qarg'ishlarida esa ba'zan yumshoqroq, kinoyaviy yoki ijtimoiy mazmun ustun bo'lishi mumkin. Masalan, "iki yakang bir araya gelmesin" (ishlaring yurishmasin) yoki "gün yüzü görmeyesin" kabi qarg'ishlar bevosita halokat emas, balki omadsizlik va baxtsizlikni bildiradi.

Diniy omil ham qarg'ishlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Qaysidir ma'noda mifik qarashlarni o'zida saqlaydi deyish mumkin. Folklorshunos olimi F. Eshbayevaning fikricha o'zbek xalq qarg'ishlari orasida "Xudo", "Alloh" so'zlarini qo'llash asnosida raqibini mavh etishga qaratilgan diniy etiqodlar bilan bog'lik aytimlar ham katta o'rin egallaydi. G'ayritabiiy qudratga ishonch bilan qarash va so'zda yaratuvchi nomini tilga olish hamda ayrim diniy udumlar bilan bog'lik leksemalarni qo'llash kishilar ongiga va ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan[Эмбоева Ф., 2008: 85-86]. Quyida ana shunday qarg'ishlarning ayrim namunalarini tahlilga tortamiz:

"Iymonsiz o'l" ko'pincha yoshi ulug' kishilarga nisbatan ishlatiluvchi bu qarg'ish shunchaki "o'l" so'ziga nisbatan kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunki "iymon" so'zining islomiy talqini tana pokligi va qalb sofliqi m'anolarini anglatadi. Ana shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, bu qarg'ish yoshi ulug' bo'lishiga qaramay, o'ziga yarashmagan ishlarni qiladigan va axloqiy jihatdan buzuk kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Qarg'ishlarning poetik tuzilishi ham qiyosiy jihatdan o'xshashdir. Har ikki an'anada qisqa, ritmik, parallel tuzilmalar keng qo'llanadi. Masalan, o'zbek tilida "ko'r bo'l, xor bo'l" shakli uchrasa, turk tilida "sürün, perişan ol" kabi parallel konstruksiyalar mavjud. Bu esa qarg'ishlarning formulaviy xarakterga ega ekanini va ular og'zaki ijodda yodlab aytishga qulay shaklda rivojlanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, qarg'ishlarning ijtimoiy funksiyasi ham o'zbek va turk jamiyatlarida o'xshashdir. Ular axloqiy me'yorlarni tartibga solish, jamiyatda nomaqbul xatti-harakatlarni qoralash vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, keksalarning qarg'ishi har ikki madaniyatda ham og'ir oqibatli deb hisoblangan va undan qo'rqilgan. Bu esa qarg'ishlarning nafaqat nutqiy birlik, balki ijtimoiy nazorat mexanizmi ekanini ko'rsatadi.

Mifologik qarg'ishlarni tahlil qilar ekanmiz, bevosita mifologik ranglar bilan bog'liq qarg'ishlarning xalqimiz tilida faol qo'llanib kelinishiga guvoh bo'lamiz.

Jumaladan oq rang – poklik, halollik, tinchlik ramzi hisoblanadi. Marosim chog'ida qizlarning oq libos kiyishi, inson vafotidan so'ng aynan oq rangli kafanda so'nggi manzilga kuzatilishi, taomning majoziy ma'noda oq, oqlik ma'nolarida kelishi bejiz emas. Chunki oq rang qadimdan mifologik unsurlar bilan bevosita bog'liq holda kelgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Quyida bir nechta oq rang bilan bog'liq qarg'ishlarni ko'rib chiqamiz: *Og'zing oqlik ko'rmasin, og'zing oqliqqa zor o'tgur, bergan oq sutim buyurmasin, surpangga kirgan sichqonni og'zi oqarmasin, surpang oqarmasin, oq sut ko'r qilgur, oq urgur, tuzim tutsin* – kabi qarg'ishlar oqlik, taom, oq sut, tuz kabi ne'matlar bilan bog'liq bo'lib, undagi umumiy qo'llanilgan oq rang orqali turli ramzlarni ko'rish mumkin. *Oqingni kiyay, oqingni o'ray, ostonang oqarmasin, kosang oqarmasin* kabi qarg'ishlar ham mavjud bo'lib, bu misollarda ham oq rang orqali salbiy bo'yoqdorlik aks etgan.

Oq rangga qaysidir ma'noda qarama-qarshi bo'lgan qora rang ham qarg'ish janrida faol qo'llaniladi. Sababi, insonlar azaldan qora rangni yovuz kuchlar, o'lim, turli falokatlar bilan bog'laganlar. Olamning yaratilishi, o'ziga ayon bo'lmagan tabiat kuchlarining oldida insonlarning ojiz qolishi natijasida miflar yaratilgan bo'lsa, shu miflar bora bora ramzlarga aylanib folklor janrlarida ham qo'llanila boshlagan. Quyida qora rang bilan bog'liq qarg'ishlarni ko'rib chiqamiz. *Qora bossin, qora yer bo'lsin, qora yerga borgin, qora yerga kirgur, qora qon qusgur, qora osh bo'lgur, qorang qora tovdan o'tsin, qorang o'chsin*. Yuqoridagi qora rang bilan bog'liq barcha qarg'ishlarda kishiga yomonlik tilash, qora rangini o'lim bilan bog'lash kabi motivlar ustivorligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va turk qarg'ishlari umumturkiy ildizga ega bo'lib, ularning mifopoetik asoslari bir-biriga juda yaqin. Tabiat obrazlari, antropomorfik tasvirlar, kasallik va o'lim motivlari, diniy elementlar hamda poetik tuzilish jihatidan katta o'xshashliklar mavjud. Shu bilan birga, har bir xalqning tarixiy rivoji, madaniy muhiti va til xususiyatlari qarg'ishlarning shakl va mazmunida muayyan farqlarni yuzaga keltirgan. Mazkur qiyosiy tahlil qarg'ishlarni nafaqat folklor janri sifatida, balki turkiy xalqlarning umumiy madaniy merosi va mifologik tafakkurining muhim ko'rinishi sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliqulova H. Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg'ishlarning qiyosiy tipologik tahlil// Uluslararası 5 Turk dünyası Eğitim Bilimleri ve Sosyal Bilimler Kongresi. 21-24 kasim. 2024.
2. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.7..
3. Каскабасов С. Казахская несказочная проза. – Алмата: Наука, 1990. – С.74.
4. Рузимбоев С., Рузметов Х. Фольклор атамалари кискача луғати. – Урганч, 2007, – Б. 32-33.
5. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент, 1981. – Б.103.
6. Турдимов Ш. Ўзбек мифологияси ва фольклори. – Тошкент, 2023. – Б. 7-8
7. Шатинова Н. Об одной разновидности заклинаний в алтайском фольклоре К(постановке вопроса) //Улагашевские чтения. – Горно-Алтайск, 1979. – С. 95.
8. Эшбоева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари. Филол. фанлари док. дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 85-86.